

## TABOBATDA GIDROFIL O'SIMLIKLARINING, JUMLADAN QAMISHNING AHAMIYATI

Muminov S.R<sup>1</sup>, Azzamov U.A<sup>2</sup>

1. Zarmed Universiteti Tibbiy biologiya, biologik fizika, mikrobiologiya va tibbiyotda IT kafedrası o'qituvchisi:

2. Zarmed Universiteti Tibbiy biologiya, biologik fizika, mikrobiologiya va tibbiyotda IT kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Tabobatda ham qamishdan keng foydalaniladi. Qamish yara-chaqalarni tuzatishda, bakteriyalarni o'ldirishda, peshob haydashda, qon to'xtatishda va terlashga qarshi kurashishda samarali vosita.

**Kalit so'zlar:** Sellyuloza, lignin, ksilans, peshob, zararkunanda, organik

Par yoki qaynoq suvdan kuygan joylarga qamish poyasi qo'yilsa, tezda yaxshi qiladi. Bunda qamish poyasi yaxshi qurigan bo'lishi kerak. Shu bilan birga o'zidan tabiiy hid chiqarib, asablarni tinchlantiradi. Zararkunandalardan himoyalaydi. Buning uchun qamishning kulrang donli meva poyasini olib tutatiladi. Uning tutuni pashsha va shu turdagi hasharotlardan himoya qiladi. Qamishdan yasalgan bo'ya esa [burga](#) va [kanalar](#)dan asraydi. Qamish bo'ya sifatida to'qilganda ham o'zidan hid chiqarib turadi va zararkunandalarni haydaydi. Qamishning tabiiy shifobaxsh xususiyatlari ham e'tiborga loyiqdir, masalan, oyoq kasalliklarini davolashda, terlashga qarshi kurashishda va yaralarni tezda tuzatishda foydalaniladi. Qamishning kimyoviy tarkibi asosan uning o'sish sharoitiga va turi turlicha bo'lishi mumkin, ammo umumiy ravishda uning asosiy kimyoviy komponentlari quyidagilarni tashkil etadi. Qamishning poyalari va barglari asosida katta miqdorda sellyuloza mavjud. Bu o'simlik materialining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning mustahkamligini ta'minlaydi. Sellyuloza, odatda, o'simliklar tomonidan ishlab chiqarilgan va ularning hujayra devorlarini tashkil etuvchi asosiy organik birikmadir. Qamishda sellyuloza tarkibi odatda 35-45% atrofida bo'ladi.

Lignin qamishning ikkinchi eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu moddalar o'simlikning mexanik mustahkamligini ta'minlaydi va uning o'sishida muhim rol o'ynaydi. Lignin o'simliklar va daraxtlarning tuzilishiga kuchli qarshilik ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Qamishdagi lignin miqdori taxminan 10-20% bo'lishi mumkin. Ksilans - bu boshqa bir polisakkarid turidir, u qamishning poya va ildizlarida mavjud. Ksilans o'simlik hujayralarining elastikligini oshiradi. U tarkibida oligosakkaridlar mavjud bo'lib, ular o'simliklarning strukturasi mustahkamlashga yordam beradi. Qamishning o'simliklarida silitsiy moddasi ham mavjud. Bu modda o'simlik hujayralarida ko'p miqdorda bo'lib, ular kuchli va bardoshli bo'lishini ta'minlaydi. Silitsiyning miqdori o'simlikning turiga qarab o'zgaradi, ammo u o'simlikni kasalliklar va zararkunandalar bilan kurashishda yordam berishi mumkin. Qamishda turli minerallar ham mavjud. Ular o'simlikning rivojlanishi uchun zarurdir. Bularning eng muhimi — kaliy, kalsiy, magniy, natriy va fosfor. Bu elementlar o'simlikning metabolizmida, suv va oziqa moddalarining harakati va so'rilishida muhim rol o'ynaydi.